INTEGRAL MIKROSXEMALAR TOPOLOGIYALARINING INTELLEKTUAL MULK SIFATIDA HUQUQIY HIMOYASINI OSHIRISH ZARURATI

Inoyatov Behruzjon Umidjon o‘g‘li
Oliy ta’lim,fan va innovatsiyalar vazirligining Yuridik ta’minlash bo‘limi bosh yuriskonsulti
Tel.: +998 90 351 43 33

Email: b.inoyatov@mininnovation.uz

Annotatsiya: Mazkur tezisda integral mikrosxemalar topologiyalar tushunchasi, kelib chiqish tarixi, milliy va xalqaro qonunchilik orqali himoya qilish yo‘llari hamda ushbu qonunchilikni yanada rviojlantirish zarurati haqida fikr-mulohazalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Intellektual mulk, integral mikrosxem, integral mikrosxema topologiyasi, huquq egasi, topologiya muallifi, talabnoma, halqaro qonunchilik.

Kirish

Zamonaviy axborot texnologiyalarida mikroelektronikalarning faol rivojlanishi yigirmanchi asrning 60 – yillariga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrga kelib elektron uskunalar yanada murakkablashdi, ularning o‘lchamlari va ularning ishonchliligiga bo‘lgan talablar kuchaydi. Bu davrda elektron funksionalli qurilmalarga mikrominiaturada integratsiyalashgan dizayn yaratila boshlandi, ular yangi yo‘nalish – mikroelektronika yo‘nalishi integral mikrosxemalarning asosi yaratila boshlandi.

Integral mikrosxemalarning mikroelektronikada elektron funksiyasi analog signalni raqamli shaklga aylantirishdir.

Integral mikrosxemalar intellektual mulk obyekti hisoblanadi va ushbu intellektual mulk obyektining egasiga bo‘lgan mualliflik huquqini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Integral mikrosxemalar topologiyalarini yaratish, ularning huquqiy himoyasi va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish xaqida tushunchalar O‘zbekiston Respubliasining 2001-yil 12-maydagi “Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risidagi”gi 218-II-son Qonunida nazarda tutilganidan.

Qonunga ko‘ra:

– **integral mikrosxema** – elektron vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan tugal yoki oraliq shakldagi mikroelektron buyum bo‘lib, undagi elementlarning hech bo‘lmaganda biri faol hisoblanadi, buyumdagi bog‘lanishlarning ayrimlari yoki barchasi bu buyum tayyorlangan jismlar tarkibida va (yoki) sirtida uzviy shakl topgan bo‘ladi ;

– **integral mikrosxema topologiyasi** – integral mikrosxema elementlarining va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar majmuining moddiy jismda qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi;

– **huquq egasi** – integral mikrosxema topologiyasining muallifi, uning merosxo‘ri, shuningdek integral mikrosxema topologiyasidan foydalanish mulkiy huquqlarini qonunga yoki shartnomaga asosan olgan va ularga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs [2].

Integral mikrosxemaning ushbu Qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan o‘ziga xos topologiyasi integral mikrosxema topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish obyekti hisoblanadi.

Muallifning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan va yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma’lum bo‘lmagan topologiya boshqacha holat isbotlangunga qadar o‘ziga xos deb e’tirof etiladi.

Topologiya muallifi bu ijodiy mehnati bilan topologiyani yaratgan jismoniy shaxs shu topologiya muallifi deb e’tirof etiladi. Agar topologiya ikki yoki undan ortiq jismoniy shaxslarning

birgalikdagi ijodiy mehanti bilan yaratilgan bo‘lsa, ular birgalikda mualliflar (hammualliflar) deb e’tirof etiladi.

Topologiyani yaratishga shaxsan ijodiy hissa qo‘shmagan, biroq muallifga texnik, tashkiliy yoki moddiy yordam ko‘rsatgan yoxud topologiyadan foydalanish huquqini rasmiylashtirishga ko‘maklashgan jismoniy shaxslar mualliflar deb e’tirof etilmaydi.

Muallifning topologiyaga bo‘lgan huquqi boshqa shaxsga o‘tkazilmaydigan shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Huquq egasiga topologiyadan o‘z ixtiyoriga binoan foydalanish, shu jumladan uni tayyorlash, qo‘llash va tarqatish mutlaq huquqi tegishlidir.

Huquq egasi topologiyada, shuningdek shunday topologiyani o‘z ichiga olgan buyumlarda “T” harfi yoki aylanadagi “T” harfi yoxud boshqacha tarzda ifodalangan “T” harfini joylashtiradi va bu uning O‘zbekiston Respublikasida muhofaza qilinishini ko‘rsatadi.

Bir nechta huquq egalariga tegishli huquqlardan foydalanish tartibi ular o‘rtasidagi shartnomaga binoan belgilanadi.

Muhofaza qilinadigan topologiyani, shu topologiyali integral mikrosxemani yoki shunday integral mikrosxemani o‘z ichiga olgan buyumni huquq egasining ruxsatisiz qo‘llash, olib kirish, sotuvga qo‘yish, sotish, takrorlash (o‘ziga xos bo‘lmagan qismini takrorlash bundan mustasno) va fuqarolik muomalasiga boshqacha tarzda kiritish topologiyadan foydalanishga bo‘lgan mutlaq huquqning buzilishi deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar topologiyadan foydalanishga bo‘lgan mutlaq huquqning buzilishi deb e’tirof etilmaydi:

topologiyadan foyda olmagan tarzda shaxsiy maqsadlarda, shuningdek uni baholash, tahlil kilish, tadqiq etish yoki o‘qitish uchun foydalanish;

qonunga xilof ravishda takrorlangan topologiyali integral mikrosxemani yoki shunday integral mikrosxemali buyumni sotib olgan shaxsning harakatlari, agar bu shaxs ularga qonunga xilof ravishda takrorlangan topologiya kiritilganini bilmagan va bilishi mumkin ham bo‘lmagan bo‘lsa;

aynan bir xildagi topologiyani mustaqil ravishda yaratgan shaxsga nisbatan, ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan harakatlar.

Xodim o‘z xizmat vazifalarini yoki ish beruvchining topshirig‘ini bajarish vaqtida yaratgan (xizmat topologiyasi) topologiyaning ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma olish huquqi, basharti bu ular o‘rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, ish beruvchiga tegishli bo‘ladi.

Topologiyani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma muallif, ish beruvchi yoki ularning huquqiy vorisi tomonidan bevosita yoki ishonchli vakil orqali O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligiga (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) beriladi.

Topologiyani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun talabnoma berish, agar topologiyadan foydalanilgan bo‘lsa, undan birinchi marta foydalanilgan sanadan etiboran ikki yildan oshmagan muddatda amalga oshirilishi mumkin.

Topologiyani ro‘yxatdan o‘tkazishga doir talabnoma bitta topologiyaga taalluqli bo‘lishi kerak.

Topologiyani ro‘yxatdan o‘tkazishga doir talabnomani rasmiylashtirish uchun zarur bo‘ladigan hujjatlarga doir talablar Agentlik tomonidan belgilanadi.

Topologiyani ro‘yxatdan o‘tkazishga doir talabnomaning davlat ekspertizasi talabnoma berilgan sanadan e’tiboran ikki oylik muddat ichida Agentlik tomonidan o‘tkaziladi. Davlat ekspertizasi natijalariga binoan topologiyani ro‘yxatga olish yoki uni ro‘yxatga olishni rad etish to‘g‘risida qaror chiqarilib, bu haqda talabnoma beruvchi xabardor qilinadi.

Talabnoma beruvchi Agentlikning so‘roviga binoan yoki o‘z tashabbusi bilan topologiyani ro‘yxatga olish to‘g‘risida qaror qabul qilingunga qadar talabnoma materiallarini to‘ldirish, aniqlashtirish va tuzatishga haqlidir.

Talabnoma beruvchi davlat ekspertizasining xulosasi ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran uch oy ichida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Apellatsiya kengashiga (bundan buyon matnda Apellatsiya kengashi deb yuritiladi) shikoyat qilishga haqlidir.

Davlat ekspertizasining xulosasi ustidan Apellatsiya kengashiga shikoyat qilish tartibini Agentlik belgilaydi.

Talabnoma beruvchi Apellatsiya kengashining qarori ustidan qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran olti oy ichida sudga shikoyat qilishga haqlidir.

Davlat ekspertizasining xulosasi asosida Agentlik patent boji to'langani to'g'risidagi hujjat olingan sanadan e'tiboran bir oy ichida topologiyani Integral mikrosxemalar topologiyalarining davlat reyestrida ro'yxatga oladi. Reyestrga kiritiladigan ma'lumotlar tarkibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

Topologiya ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risidagi ma'lumotlar Agentlik tomonidan rasmiy axborotnomada e'lon qilinadi. E'lon qilinadigan ma'lumotlar tarkibi Agentlik tomonidan belgilanadi. Topologiya ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma huquq egasining topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Guvohnomani berish Agentlik tomonidan topologiya ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilingan sanadan e'tiboran uch oy o'tgandan keyin amalga oshiriladi. Topologiya ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma shakli hamda unda ko'rsatiladigan ma'lumotlar tarkibi Agentlik tomonidan belgilanadi. Topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquq o'n yil davomida amal qiladi.

Topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquq amal qilish muddatining boshlanishi quyidagi sanalardan eng oldingisi bo'yicha aniqlanadi:

topologiyadan birinchi marta foydalanish sanasi bo'yicha, bunda bu topologiya jahonning biron-bir erida fuqaro muomalasiga oldinroq kiritilganligi hujjatlar bilan qayd etilgan sana nazarda tutiladi;

topologiya ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy e'lon qilingan sana bo'yicha.

Boshqa shaxs tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan aynan bir xil topologiya paydo bo'lgan hollarda, topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqning amal kilish umumiy muddati o'n yildan oshib ketishi mumkin emas.

Topologiyaga bo'lgan huquq to'la yoki qisman boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin. Topologiyaga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnoma Agentlikda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Topologiyaga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnomani ro'yxatdan o'tkazish tartibi va shartlari Agentlik tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi milliy xavfsizlik maqsadlarida huquq egasiga qonunchilikda belgilangan kompensatsiya to'lagan holda topologiyadan uning roziligisiz foydalanishga ruxsat berishi mumkin.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq yuridik ahamiyatli harakatlarni sodir etganlik uchun patent bojlari undiriladi.

Patent bojlarining miqdori va ularni to'lash muddatlari, ularni to'lashdan ozod qilish, to'lovlarning miqdorini kamaytirish yoki ularni qaytarib berish asoslari, shuningdek patent bojlaridan foydalanish tartibi qonunda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxslari topologiyani boshqa davlatlarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish huquqiga egadirlar. Chet el yuridik va jismoniy shaxslari O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki o'zaro kelishuv prinsipi asosida foydalanadilar.

Ilg'or xorijiy davlatlarning qonunchiliklarida huquqiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlash maqsadida yaratish va undan keyingi jarayonda yuzaga keladi ijodiy faoliyat natijalaridan

foydalanish integral mikrosxema sohasining huquqiy himoyasini talab qilgan va ushbu sohadagi ilk qonunchilik tarixi Amerika Qo‘shma Shtatlariga borib taqaladi .

Aynan shu davlatda 1984-yilda “Yarimo‘tkazgichli integral mikrosxemalarni himoya qilish to‘g‘risida” Qonun qabul qilingan [3].

Keyinchalik aynan shu mazmundagi qonun Yaponiyada ham qabul qilingan.

1989-yilning may oyida esa Vashingtonda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a’zo davlatlar tomonidan “Integral mikrosxema topologiyasiga nisbatan intellektual mulk to‘g‘risida” shartnoma imzolangan.

Yevropa Ittifoqida esa Yevropa Ittifoqi Kengashining “Yarimo‘tkazgichli mahsulotlar topologiyalarining huquqiy himoya qilish to‘g‘risida”gi 87/54-sonli Direktivasi 1986-yil 16-dekabrda qabul qilindi.

Direktivada ta’kidlanishicha, integral mikrosxemalar topologiyasi uni ishlab chiquvchilarning intellektual (aqliy) faoliyati natijasi bo‘lishi hamda hammaga ma’lum bo‘lmasligi sharti bilan huquqiy himoyaga ega bo‘ladi.

Agar topologiya yarimo‘tkazgich sanoatida taniqli elementlardan iborat bo‘lsa, unda bunday elementlarning umumiyligi yaxshi ma’lum bo‘lmagan taqdirda unga himoya beriladi [4].

Xulosa

Bugungi kunda O‘zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta’minlash doirasida xalqaro me’yorlar talablaridan kelib chiqib, intellektual mulk sohasining barcha yo‘nalishlarini qamrab olishga qaratilgan intellektual mulk sohasini rivojlantirish milliy strategiyasini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Integral mikrosxemalar topologiyalari esa aynan ushbu intellektual mulkning bir qismi bo‘lib, yangi soha sifatida huquqiy muhofazasini oshirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida integral mikrosxemalar topologiyalari va ularning muxofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlarimizni xalqaro umum e’tirof etilgan huquq normalariga muvofiqlashtirib borish mamlakatimizni intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Корнеев В.А. Программы для ЭВМ, базы данных и топологии интегральных микросхем как объект интеллектуального права. — М.: Статут, 2010. — С. 165.
2. https://lex.uz/docs/32769
3. Штоляков В.И., Яганова М.В. Об охране интеллектуальных прав на топологии интегральных микросхем.// Вестник МГУП имени Ивана Федорова. — 2015. — № 6. — С. 83–84.
4. Штоляков В.И., Яганова М.В. Возникновение правовой охраны программ для ЭВМ и баз данных. // Вестник МГУП имени Ивана Федорова. — 2015. — № 1. — С. 184–188.